

## NAVOIY IJODINING FOLKLORGA OID JANRIY XUSUSIYATLARI

**Sattorova Mahliyo**

Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so‘zlar:** Navoiy ijodi, folklor, an’ana, kult, janr, urf-odat, inonch, badiiy mahorat, afsona, rivoyat, masal.

### Annotation

---

Buyuk mutafakkir shoir A.Navoiy ijodida san’at, balki folklor janrlari, obrazlari, qadimiy urf-odatlar, turli-tuman kultlar, e’tiqodiy tasavvur inonchlardan ham foydalanilgan. Navoiy ijodida folklor an’analarini tadqiq etish, bu sohada shoir mahoratini o‘rganishga o’tgan asning birinchi yarmidanoq kirishilgan edi. Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida follar va dostonchilik an’analarining bayoni keltirilgan va namunalar keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

---

### KIRISH

Ulug’shoirning qutlug‘ishlaridan biri shuki, xalq ijodkorlari va ijrochilar ixtisoslashganligini e’tirof etadi. Ular - yirovlar, o‘zonlar (qo‘bizchi), roviylar, noqillar, avsunpardozi, dostonlar, qissasozlar, qissaxonlar, xazzolar (hazilkashlar), bozdago‘ylar (latifago‘ylar), go‘yandalar, navhogarla, navogzylar kabi ijodkorlar ekanligini bayon etadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Olim O.Safarov o‘z maqolasida o‘zbeklarning budi-budoi” xalq marosim qo‘srig‘i “Suv xotin, suvsiz xotin” deb nomlanib, qurg‘oqchilik paytida yomg‘ir yog‘ishini istab aytildigan qo‘srig‘ sanalgan. Bu qo‘srig‘ aslida genetik jihatidan Usmonli turklar orasida yaratilgan bo‘lib, o‘zbeklar orasida “Sust xotin” nomi bilan aytilayotgani e’tirof etilgan. Bu marosim qo‘srig‘i professor B.Sarimsoqov tomonidan atroflicha ilmiy tadqiq etilgan. Olim “Sust xotin” marosim qo‘sriqlarining bir necha lokal variantlari mayjudligi, uning tarixiy asosi “Avesto”da ham bitilganligini e’tirof etadi. Binobarin, Navoiyning ham ushbu xalq qo‘srig‘i tabiatini ochishdagi qarashlari folklorshunos olim tadqiqi bilan uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

M.Narziqulovaning “Xamsa”dagi “Sab’ai sayyor” dostonida uchraydigan mifologik obrazlar talqini ham yoritilgan. Dostondagi bodpo, qaqnus, humo, jonqushining chibn yanglig‘ bo‘lish kabi mifologik obraz va detallari mazmuni yoritilgan. Asarda yana “Alanquva” afsonasi ham keltirilgan bo‘lib, bu afsona Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” Abulg‘oziyning “Shajjorai turk” asarlarida o‘ziga xos tarzida bayon etilishi o‘rganilgan. Shuningdek, “Sab’ai sayyor dostonida” Lotu, Monot, Lotu Uzzo (arablar cho‘qinadigan butlarning nomi) deb izohlangan. Aslida lot, Manot va Uzzo obrazlari isom asotirlari zamirida Markaziy Osiyo mifologiyasida kirib kelgan bo‘lib, ular islomiyatdan oldingi mushriklar sig‘ingan ma‘budalarning atamasi sanalgan.

Olima “Sabba’i sayyor” dostonidagi Xizr mifologik obraz talqiniga ham atroflicha yondashadi. Xizr

---

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

tiriklik suvini topib ichgan, abadiy barhayotlikka erishgan obraz. Shu tarzda u xalq afsonalariga kishilarga homiylik qiluvchi, yaxshilik ko'rsatuvchi odamlarni hardoim qo'llab- quvvatlovchi pir yoki aziz avliyolardan biri sifatida namoyon bo'lishi aytildi. Bundan tashqari, asarda folklorga xos bo'lgan motiv va detallarning dostonda mavjudligi keng tahlil etilgan. Chunonchi, Bahromning Moniy chizgan surat tufayli Diloromga oshiq bo'lib qolishi, yoxud uchunchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofir hikoyasida misr shahrilik Sa'd jasorati tasvirlanadi. U yovuz kuchlarni yenggadi, g'aroyib timsillarni ochadi, yovuzlik timsoli bo'lgan qatron devni yengadi. Shuningdek, asarda tush motivi ham tasvir etilgan. Dostonning 20- bobida Farrux sevgilisini tushida ko'rib oshiq bo'lib qolishi folkloristik detal asosida tasvirlangan [2].

Aslida Alisher Navoiy "Xamsa"sigi kiritilgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sabba'i sayyor" doston qahramonlari xalq tomonidan yaratilgan afsona, rivoyat, ertak va doston variantlari asosida yuzaga kelgan. Ular mazmun va kompozitsiya jihatidan farq qiladigan xalq asarlaridir [5].

Olimlar M.Jo'raev va M.Narzuqulovalar "Xamsa" dostoniga kiritilgan dostonlar ta'sirida xalq kitoblarining yaratilgani xususida atroficha fikr mulohazalar bildirishgan. Bunday xalq ijodkorligi Alisher Navoiy ijodiga cheksiz mehr-muhabbat tuyg'usi bois ekanligi dalillar asosida e'tirof etilgan. Masalan, XX asr boshida yuzaga kelgan va Mirmahdum tomonidan kitobat qilingan "Nasri" Xamsai benazr, Mahzum tomonidan yaratilgan "Qissai shahzoda Farhodu Shirin", "Kitobu Layli va majnun"da shoir dostonlarining to'liq nasriy bayonlari keltirilgan. Xuddi shuningdek, baxshi Fozil Yo'ldosh o'g'li tomonidan yozib olingan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Bahrom va Gulandom" dostonlari ham bevosita Alisher Navoiy asarları syujet va motivlari asosida yuzaga kelgan folklor namunalari ekanligi e'tirof etilgan. Xuddi shuningdek, folklor janrlari sanalgan afsona, rivoyat, ertak va dostonlardagi syujet va obrazlarni motiv va detallarni "Farhod va Shirin" dostonida ham ko'p uchratish mumkin. Chunonchi, bosh qahramonlar obrazlari nomi shoir tomonidan xalq rivoyatlari va kitoblaridan olingan. Undan tashqari "Oynai Iskandariy", Suqrot tog'i kabi folkloriy detallar yoki Suqrotga yetishish yo'lida Farhodning yovuz dev va ajdarlarni o'ldirishi voqeasi tasvir etilgan. Bularning barchasi dev va ajdar mifologik obrazlar sanalib folklorshunos olim J.Eshonqulov ularning genetik asosini o'rganar ekan, dev faqat yovuzlik kuchi bo'lib qolmay, ba'zan insonlarga homiylik qilishi ham e'tirof etiladi. Farhod Suqrot tog'iga kelib buyuk faylasuf Suqrot bilan kelib uchrashadi. Bu yo'lida Xizr mifologik obraz homiy sifatida Farhodga rahnamolik ko'rsatadi. Farhod o'z hayoti, kelajagi va haqiqiy ishqqa ega bo'lishi kabi sirlarini bilib oladi [2].

Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub" (Qalbga mahmub hikmatlar va hikoyatlar) deb atalmish umrining so'nggi yillarida yozgan asarida ham folklor janrlaridan ham maqol va hikmatlar ham juda katta o'rinn egallaydi. Bu asar 2018 yilda olimlar Abdumurod Tilavov va Ibrohimjon Saidullaev tomonidan o'zbek tiliga tabdil etilib nashr etilgan [1].

## XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodi mahorati badiiy san'at, tasavvufona ruh va qarashdan iborat bo'lib qolmay, balki folklor janrlari: afsona va rivoyat, astilar, maqol va naqllar, shuningdek, folklor obrazlari mavsum va marosimlari motiv va detallari bilan ham yuksaklikkasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Navoiy A. MAT. 20 tomlik. –Toshkent: "Fan", 1998. -120-122-b.
2. Navoiy A. Mahbub ul qulub (Qalbga mahbub hikmatlar va hikoyalar). –Toshkent: "Sano standart", 2018. 192-b.
3. Navoiy A. Xamsa. Olim P.Shamsiev nashri. T.: "O'zFA" nashryoti, 1958. – 778 b.
4. Shayxzoda M. Qo'shiqlar haqida. –T.: "O'zbekiston madaniyati", 1964. 4-iyul.
5. Mallaev N. A. Navoiy va xalq ijodiyoti. –T.: 1974.
6. Alaviya M Navoiy g'azallarida xalq ta'birlari. –T.: "Sharq yulduzi", 1968. 8-son, 203-208b